

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI ORASIDA KITOBXONLIK
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Xasanova Asila

Qarshi Xalqaro Universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi, mazkur jarayonga ta'sir qiluvchi omillar, mavjud muammolar hamda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Kitobxonlik madaniyati o'quvchilarning fikrlash, nutq va estetik tafakkurini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilib, o'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan samarali metodlar, o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining ahamiyatini ochib beradi. Maqola nazariy va amaliy jihatdan foydali tavsiyalar bilan boyitilgan va shu sababli, boshlang'ich ta'lim muassasalari o'qituvchilari, metodistlar va tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, kitobxonlik madaniyati, o'quvchilar, o'qish ko'nikmasi, didaktik usullar, innovatsion yondashuv, tarbiyaviy jarayon, ma'naviy kamolot, axloqiy tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается актуальность формирования культуры чтения среди учеников начальных классов, анализируются факторы, влияющие на данный процесс, существующие проблемы и эффективные педагогические подходы. Культура чтения рассматривается как важный фактор, способствующий развитию мышления, речи и эстетического восприятия учащихся. На основе анализа научных источников раскрываются эффективные методы повышения интереса детей к чтению, а также значимость сотрудничества учителей и родителей. Статья содержит теоретически и практически полезные рекомендации, что делает её полезной для учителей начальных школ, методистов и исследователей.*

Ключевые слова: *начальное образование, культура чтения, учащиеся, навыки чтения, дидактические методы, инновационные подходы, воспитательный процесс, духовное развитие, нравственное воспитание.*

Abstract: *This article addresses the relevance of fostering a reading culture among primary school students, analyzing the factors influencing this process, existing challenges, and effective pedagogical approaches. Reading culture is viewed as an essential factor that promotes the development of students' thinking, speech,*

and aesthetic perception. Based on the analysis of scientific sources, the article reveals effective methods to increase children's interest in reading, as well as the importance of cooperation between teachers and parents. The article is enriched with both theoretical and practical recommendations, making it useful for primary school teachers, methodologists, and researchers.

Keywords: *primary education, reading culture, students, reading skills, didactic methods, innovative approaches, educational process, spiritual development, moral education.*

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faolligi kuchli, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu boradagi muhim poydevor bo'lib, aynan shu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri, o'qishga bo'lgan qiziqishi shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi ta'limning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda yosh avlodning kitobga bo'lgan qiziqishi pasayib borayotganligi, axborot texnologiyalarining hayotimizga keng kirib kelishi bilan birga ko'plab o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ehtiyojning kamayishi kuzatilmoqda. Bu esa, yoshlarning tafakkur darajasiga, ma'naviy-axloqiy kamolotiga, nutq va ijodiy fikrlash salohiyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Demak, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish faqat ta'limning emas, balki jamiyatning ham umumiy maqsadi bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar va samarali metodlarni ilmiy asosda o'rganish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Kitobxonlik madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- Mazkur jarayonda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining rolini o'rganish;
- Kitobxonlikni rivojlantirishda qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- Amalga oshirilayotgan metodik yondashuvlar samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyekti – boshlang'ich ta'lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti – boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat.

Ushbu masala bo'yicha turli olimlar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'zbekistonlik pedagog olimi M. Qodirova (2017) o'z tadqiqotlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning asosiy bosqichlarini aniqlab bergan bo'lib, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, psixologik holatini va ijtimoiy muhitni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf davri bolalarda o'qishga nisbatan barqaror qiziqish va ehtiyojni shakllantirish uchun eng muhim davr hisoblanadi. A. Usmonova (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda oilaviy muhitning roli chuqur o'rganilgan. U ota-onalarning o'z farzandlari bilan birgalikda kitob o'qishi, badiiy asarlar muhokamasini tashkil etishi, bolalarda kitobga ijobiy munosabat shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlab bergan. Shuningdek, I. Karimova (2020) o'z tadqiqotida kitobxonlikni rivojlantirishda darsdan tashqari ishlanadigan mashg'ulotlar, ya'ni adabiyot kechalari, kitob ko'rgazmalari, o'quvchi-ijodkorlar uchrashuvi kabi tadbirlarning ahamiyatini ta'kidlab, ularning metodik asoslarini ishlab chiqqan.

Xalqaro tajribalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, A. Cunningham va K. Stanovich (1997) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshda kitob o'qish bilan muntazam shug'ullangan o'quvchilar kelajakda yuqori darajadagi savodxonlikka ega bo'lishadi. Ular kitob o'qishni nafaqat o'quv topshirig'i, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida ham qabul qilishadi. Finlandiyalik pedagog S. Mäkinen (2013) esa o'z ishlarida ta'lim muassasalarida "kitobxonlik madaniyatini" shakllantirishda maktab kutubxonalarining roli, o'qituvchilar bilan kutubxonachi hamkorligining samarali shakllari haqida so'z yuritadi. Uning fikricha, o'qituvchining kitobga bo'lgan shaxsiy munosabati bevosita o'quvchilarga ham ko'chadi. Shuningdek, UNESCO (2020) ma'lumotlariga ko'ra, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun milliy siyosat darajasida kitob tarqatish tizimini isloh qilish, maktablarda zamonaviy kutubxonalar tashkil etish va ota-onalarni kitob o'qishga jalb qilish muhim omillar sifatida sanaladi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar kitob bilan nechog'lik erta va chuqur tanish bo'lsa, ularning o'z fikrini bayon etish, mustaqil qaror qabul qilish va axloqiy mezonlarni tushunish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar asosida aytish mumkinki, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bu kompleks, uzviy va tizimli yondashuvni talab etadigan jarayondir. Mazkur yo'nalishda o'qituvchi, ota-ona va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikning

samarali shakllari ishlab chiqilishi lozim. Zero, bu madaniyatni shakllantirish orqali o'quvchilarda o'qish ehtiyoji, bilimga chanqoqlik va ijodkorlik rivojlanadi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha olib borilgan amaliy ishlar, kuzatuvlar, suhbatlar, so'rovnoma va pedagogik tajriba natijalari tashkil etadi.

Tadqiqot Qarshi shahridagi 5ta umumta'lim maktabining 2–4-sinf o'quvchilari (jami 150 nafar) ishtirokida olib borildi. Maktablar tanlashda turli ijtimoiy-iqtisodiy muhitda joylashgan ta'lim muassasalari qamrab olindi.

Tadqiqot uch bosqichda tashkil etildi:

1. Boshlang'ich bosqich – mavjud holatni aniqlash: o'quvchilar orasida kitobxonlikka bo'lgan munosabatni o'rganish uchun dastlabki so'rovnoma va suhbatlar o'tkazildi.

2. Tajriba bosqichi – kitobxonlikni shakllantirishga qaratilgan usullar amaliyotda qo'llandi (haftalik kitobxonlik soatlari, “Eng faol kitobxon” loyihasi, ota-onalar bilan birgalikda o'qish).

3. Tahlil bosqichi – jarayon natijalari tahlil qilinib, sifat va miqdoriy o'zgarishlar aniqlashtirildi.

Tadqiqotda bir necha metodlardan kompleks tarzda foydalanildi, bu esa olingan natijalarni yanada asosli va ishonchli qilishga xizmat qildi:

- **Kuzatuv** – o'quvchilarning darsdagi va darsdan tashqari kitobxonlik faoliyati bevosita kuzatildi.

- **So'rovnoma** – o'quvchilarning kitob o'qish odatlari, yoqtirgan janrlari va o'qishga ajratadigan vaqtlari haqida anketalar to'ldirildi.

- **Suhbat** – boshlang'ich sinf o'qituvchilari va ota-onalar bilan ochiq savol-javoblar tashkil qilinib, muammolar va imkoniyatlar aniqlashtirildi.

- **Mini-tajriba (eksperiment)** – o'quvchilar bilan haftalik kitobxonlik mashg'ulotlari tashkil qilinib, ularning natijalari monitoring qilindi.

- **Refleksiya** – har bir bosqich yakunida o'quvchilarning o'z-o'zini baholashlari orqali o'zgarishlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi vosita va materiallardan foydalanildi:

- Maxsus tayyorlangan so'rovnoma blankalari (10 ta savoldan iborat);
- O'qish uchun tanlangan moslashtirilgan badiiy va didaktik kitoblar (Erkin Vohidov, Xurshid Davron, xalq ertaklari);
- Haftalik kitobxonlik jurnallari (o'quvchilarning o'qigan kitoblari va taassurotlari qayd etilgan);
- “Eng faol kitobxon” diplom va rag'batlantiruvchi belgilar.

Tadqiqot natijalari quyidagi bosqichlar bo'yicha ketma-ket tahlil qilindi:

1. Diagnostik bosqich (boshlang'ich holatni aniqlash) natijalari:

Faqat 28% (7 nafar) o'quvchi haftasiga 1 ta kitob o'qishini bildirgan.

60% (15 nafar) o'quvchi kitob o'qishga qiziqishini bildirsada, doimiy ravishda o'qimasligi aniqlandi.

12% (3 nafar) o'quvchi esa umuman kitob o'qimasligini tan oldi.

O'qilgan matnni qayta hikoya qilish bo'yicha o'tkazilgan og'zaki savol-javob natijalarida o'quvchilarning 64% (16 nafar) o'rtacha, 24% (6 nafar) past, faqat 12% (3 nafar) yuqori natija ko'rsatdi.

2. Natijaviy bosqich (o'zgarishlarni baholash) natijalari:

Haftasiga 1 ta va undan ortiq kitob o'qiydigan o'quvchilar soni 28% dan 76% gacha (7 nafardan 19 nafargacha) oshdi.

Kitob o'qishga nisbatan ijobiy munosabat bildirganlar soni 60% dan 88% ga (15 nafardan 22 nafargacha) oshdi.

O'qilgan asarni og'zaki tahlil qilishda yuqori natijaga erishganlar soni 12% dan 48% ga (3 nafardan 12 nafargacha) ko'tarildi.

O'quvchilarning 84% (21 nafar) o'qish davomida yangi so'zlarni o'zlashtirib, ularni nutqida qo'llaganini ko'rsatdi.

O'rtacha o'qish va hikoya qilish darajasi 64% dan 80% gacha oshdi.

Natijaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, tizimli tarzda tashkil etilgan metodik ishlar natijasida o'quvchilarning kitobxonlik madaniyati, o'qish qobiliyati, mustaqil fikrlash va og'zaki ifoda ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur natijalar O'zbekistonlik olimlar, xususan, Qodirova M. (2021) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan hamohang. U o'z tadqiqotida boshlang'ich sinfda ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish uchun integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ta'kidlagan. Tadqiqotimiz natijalari ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi, ayniqsa, ona tili, atrof-muhitni o'rganish va tasviriy san'at darslarida ekologik elementlarni uyg'unlashtirish orqali ijobiy samara kuzatilgan. Shuningdek, Abdurahmonova N. (2019) tadqiqotida ekologik tarbiyaning boshlang'ich bosqichda yetarli darajada tashkil etilmagani sababli o'quvchilarda ekologik madaniyatning shakllanishi sekin kechishini bildirgan. Bizning tadqiqotimiz esa, to'g'ri pedagogik yondashuv, motivatsion vositalar va interfaol uslublar orqali bu muammoni kamaytirish mumkinligini amaliy jihatdan isbotladi.

Chet el tajribalariga murojaat qilsak, Palmer J.A. (2003) tomonidan Buyuk Britaniyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim bolalarda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikni oshiradi. Bizning o'rganishlarimizda ham

bolalarning ekologik mavzularda fikr bildirishga bo'lgan qiziqishi va darsdan tashqari faoliyatlardagi ishtiroki ortgani kuzatildi. Tilbury D. (1995) esa ekologik ta'limda ko'proq faol, reflektiv va eksperimental metodikalarni qo'llashni taklif qiladi. Tadqiqotimizda qo'llanilgan amaliy mashg'ulotlar, guruhli ishlar, o'yinli yondashuvlar aynan shu metodik tavsiyalar bilan uyg'un keladi. Bu esa metodik yondashuvlarning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asosli ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, UNESCO (2020) tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ekologik ta'limning boshlang'ich bosqichda yo'lga qo'yilishi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bizning tadqiqot bu global chaqiriqlarga hamohang tarzda amalga oshirildi va ularning mahalliy sharoitda qanday tatbiq qilinishi mumkinligini namoyish etdi.

Umuman olganda, tadqiqotimiz natijalari mahalliy va xalqaro ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlashadi hamda ularni amaliy jihatdan boyitadi. Shu orqali boshlang'ich ta'limda ekologik madaniyatni shakllantirishda tizimli va puxta yondashuvlar zarurligi yana bir bor tasdiqlandi.

Xulosa

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobxonlik madaniyatining holati, unga ta'sir qiluvchi omillar va uni rivojlantirish yo'llari chuqur o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'quvchilarda kitob o'qishga nisbatan qiziqish yetarli emas, bu esa o'quv jarayonida mustaqil fikrlash, tafakkur qilish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Asosiy sabablar sifatida oilaviy muhitda kitob o'qishga yetarlicha e'tibor berilmasligi, maktab kutubxonalari faoliyatining sustligi va o'qituvchilar tomonidan bu yo'nalishga doimiy pedagogik yondashuvning yo'qligi aniqlandi. Shuningdek, mazkur tadqiqot asosida bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, boshlang'ich sinflarda alohida haftalik kitobxonlik mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish, maktab kutubxonalarini zamonaviy, yoshga mos badiiy adabiyotlar bilan boyitish, o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish va eng faol kitobxonlarni rag'batlantirish zarur. Eng muhimi, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali oilaviy o'qish muhitini shakllantirish kitobxonlik madaniyatining ildiz otishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tavsiyalar

- Boshlang'ich sinflarda har haftalik kitobxonlik darslarini joriy etish;
- Maktab kutubxonalarini yangi, yoshga mos badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish;
- "Eng faol kitobxon" tanlovini doimiy o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish;
- Ota-onalar bilan hamkorlikda "oilaviy o'qish soatlari"ni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva, M. (2020). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish. Toshkent: TDPU Nashriyoti.
2. Karimov, U. (2019). Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning o'rni. *Pedagogik mahorat*, 4(2), 56–61.
3. Axmedova, Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish metodikasi. *Ta'lim va innovatsiyalar*, 3(1), 45–52.
4. Hasanov, D. (2018). O'qish va nutq madaniyati asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
5. Sharipova, N. (2020). Bolalar psixologiyasi va o'qishga bo'lgan motivatsiya. *Ilm va taraqqiyot*, 5(3), 70–74.
6. UNESCO. (2022). *Reading in the Early Years: Approaches for Sustainable Literacy*. Paris: UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org>
7. National Literacy Trust. (2021). *Children and Young People's Reading Habits Survey*. London: NLT. <https://literacytrust.org.uk>
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
9. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education*. New York: Macmillan.
10. Shodmonov, A., & Turg'unova, D. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati. *Pedagogik ta'lim muammolari*, 6(2), 81–87.
11. Nazarova, G. (2020). Maktab kutubxonalari faoliyatining kitobxonlikka ta'siri. *Ta'limda innovatsiyalar*, 2(3), 93–99.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2019). Kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida. PQ–4476-son. Lex.uz.
13. Qurbonova, Z. (2021). Bolalarda kitobga mehr uyg'otishning psixologik asoslari. *O'quv-tarbiya jarayonida innovatsiyalar*, 1(4), 59–64.
14. Khujanazarov, B. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni rivojlantirishda badiiy adabiyotlarning o'rni. *Boshlang'ich ta'lim*, 3(2), 41–46.
15. OECD. (2020). *Effective Teaching Strategies to Promote Reading Engagement among Young Learners*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org>